Murtolibova Madina Mirjamshid qizi

Toshkent davlat Agrar universiteti aspiranti

madina-murtolibova@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA MEHMONXONALAR BOSHQARUV MEXANIZMINING HOZIRGI HOLATDAGI

Annotatsiya

Ushbu maqola mehmonxonalar boshqaruv mehanizmining hozirgi vaqtdagi holati,so’nggi yillardagi bu sohadagi o’zgarishlar va o’zgarishlarga ta’sir etgan omillar haqidagi izlanishlar tahlili.

Kalit so’zlar:

mehmonxona, boshqaruv, turizm, rivojlanish, modulli mehmonxonalar, islohotlar, infratuzilma.

Аннотация

Данная статья представляет собой анализ исследования современного состояния механизма управления гостиничным бизнесом, изменений в этой области за последние годы и факторов, влияющих на эти изменения.

Ключевые слова

гостиничный бизнес, управление, туризм, развитие, модульные отели, реформы, инфраструктура.

Annotation

This article is an analysis of research on the current state of the hotel management mechanism, changes in this area in recent years and factors influencing the changes.

Keywords

hotel, management, tourism, development, modular hotels, reforms, infrastructure.

O‘zbekistoda mehmonxonalar boshqaruv mehanizmining hozirgi holati turizm sohasining jadal rivojlanishi fonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda turizm va mehmonxona sanoati so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechirdi, bu iqtisodiy islohotlar, modernizatsiya ishlari va strategik marketing tashabbuslari bilan bog’liq. Milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida, ushbu soha YaIM va bandlikka sezilarli hissa qo‘shadi, shu bilan birga O‘zbekiston va jahon hamjamiyati o‘rtasidagi madaniy

ko‘prik sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonning turizm sektori bozorlari liberallashishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar orqali shakllangan. Iqtisodiy modernizatsiya siyosatining tezlashishi bilan, xizmatlar sektori — ayniqsa turizm va mehmonxona — milliy rivojlanishga muhim hissa qo‘shgan. Xususan, O‘zbekistonga 2024-yilda jami 8,2 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. 2023-yilning yanvar—dekabr oylarida esa 6,6 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O‘zbekistonga kelgan edi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda yalpi ichki mahsuloti 2024-yilda 6,5% ga oshib, $115 mlrdga yetganini ma’lum qilindi. Qayd etilishicha, xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘sib, $34,9 mlrdni tashkil qildi, qiymati $10 mlrdlik 242 ta yirik va o‘rta loyihalar ishga tushgan, eksport ilk bor $27 mlrdga chiqqan.Transport tarmoqlarining kengayishi, jumladan, aeroportlar va temir yo‘llarning modernizatsiyasi mintaqaviy va xalqaro bog’lanishlarni yaxshilashga yordam berdi. O‘rta va premium mehmonxonalarning ko‘payishi yordamida Toshkent va Samarkand kabi shaharlar endi biznes va dam olish sayohatlari uchun markazlar sifatida xizmat qilmoqda.

Xususan, 2023-yil 1-yanvar holatiga respublikada 1,1 mingta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Shundan 1, 088 mingtasi mehmonxona, 15 tasi motel va 64 tasi qisqa muddatli yashash uchun mo‘ljallangan boshqa joylar mavjud. Ammo 2024-yil davomida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9,1 trln so‘mlik ijara xizmatlari ko‘rsatilgan. Yutuqlarga qaramay, shaharlar va qishloq hududlari o‘rtasidagi infratuzilma sifati farqlari, ayniqsa ekologik turizm imkoniyatlari bo‘lmagan hududlarda muammo bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda modulli mehmonxonalar qurilishi va ta’mirlanishiga subsidiyalar beriladi. Tartib 2024-yilning 1-oktabridan boshlab 2026-yil 31-dekabriga qadar Turizmni rivojlantirish jamg’armasidan tomonidan qoplanishi to‘g’risida qaror qabul qilingan. Subsidiyalar 2024-yil 1-oktabrdan 2026-yil 1-noyabrgacha muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan yangi tashkil etilgan modulli mehmonxonalarga beriladi. Subsidiya olish uchun mehmonxonada kamida 10 ta modul bo‘lishi kerak va to‘lov miqdori mehmonxona toifasidan qat’i nazar, har bir joy uchun 1 mln so‘mni tashkil etadi. Subsidiya olish uchun tadbirkor soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdor bo‘lmasligi kerak. Modulli mehmonxona subsidiya olgandan keyin kamida besh yil ishlashi shart. Shuningdek, 2026-yil 1-aprelga qadar nogironligi bor shaxslar uchun sharoit yaratishgan mehmonxonalar uchun 1 mlndan 2mlngacha subsidiya ajratilishi rejaltirilmoqda ekanligi ham yaqqol isbot bo‘lmoqda. Bundan tashqari, Franchayzing asosida mehmonxona biznesini rivojlantirish va yo‘lovchi tashuvchi yangi dor yo‘llarini qurish va jihozlash uchun ham subsidiya olish mumkin.

Tadbirkorlarga turizmni va mehmonxona faoliyatini rivojlantirishda bir qator imtiyozlar berilmoqda, shulardan:


- 2028-yil 1-yanvarga qadar turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlarga budjetga to‘langan soliqning 20% qaytarilishi to‘g’risida aytib o‘tildi.

- Servis kompaniyalariga ijtimoiy soliqlar ham 2028-yilgacha 1% miqdorida qoldirildi.

- **Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari obyektlari**

2.2.2- jadval

-



-
-

Turizm va mehmonxona rivojlanishidagi muammolar

- Mavsumiy talab va iqtisodiy zaiflik — O‘zbekistondagi turizm juda mavsumiy, bahor va kuzda, madaniy tadbirlar uchun ob-havo sharoitlari ideal bo‘lgan davrlarda yuqori darajaga ko‘tariladi;
- Infratuzilma muammolari va investitsiya ehtiyojlari — O‘zbekistonda qishloq hududlaridagi infratuzilma muammolari, tabiiy go‘zalliklarni kashf qilishni istagan sayohatchilarni to‘sib qo‘ymoqda.
- Tartibga solish va ma’muriy to‘siqlar — Byurokratik to‘siqlar, jumladan, murakkab litsenziyalash tartiblari va turizm qonun-qoidalarining tengsizlik bilan amalga oshirilishi, mahalliy tadbirkorlar va xorijiy investorlar uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

An’anaviy boshqaruv: Ko‘pchilik milliy mehmonxonalar hali ham klassik boshqaruv modelidan foydalanmoqda (ma’muriyat, menejerlar, xizmat ko‘rsatuvchilar).
Xalqaro tajriba asosida boshqaruv: Yirik brendlar ilg‘or boshqaruv tizimlari (PMS, CRM, revenue management)ni joriy qilmoqda.
Raqamlashtirish: So‘nggi yillarda rezervatsiya tizimlari, mijozlar bilan ishlash platformalari keng joriy qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi Farmoni, 35-maqsad
2. Аверина О.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности (для бакалавров) / О.И. Аверина. — М.: КноРус, 2019. —94 с.
3. Aliyeva M. T., Mirzayev M. A., Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston faylasuflar nashriyoti. 2011.
4. Boltabayev M. R. Tuxliyev I. S. Safarov B. Sh. Abduxamidov S. A. “Turizm: Nazariya va amaliyot”//Monografiya – Toshkent:”Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018.— 190 s.
5. B.J.Xakimov, B.B.Alimov, U.A.Xolmirzayev, A.X.Po‘latov. Iqtisodiy tahlil nazariyasi / O‘quv qo‘llanma : Toshkent Moliya instituti. –T.: «IQTISODMOLIYA», 2012, –240 bet.
6. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne’matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev, N.T. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2010.-166 b.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

7. Концепция развития туристской отрасли Республики Узбекистан на среднесрочную перспективу.
8. Muminov Nozim Gaffarovich. Systematization of factors affecting the development of tourism. “Учинчи ренессансни шакллантиришнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Т.: «IlmZiyo-Zakovat» нашриёти, 2022. – Б.393-395.
9. Lex.uz
10. Scopus
11. Statista
12. Stat.uz